



RISKLARNI BOSHQARISH JARAYONI VA KAMAYTIRISH USULLARI

RIZOYEV FARRUX HIKMATILLOYEVICH

“NKMK” AJ Shimoliy kon boshqarmasi Avtomobil transporti boshqarmasi, Byudjetlashtirish va kontrolling byuro boshlig’i


Annotatsiya: Bu usul korxonada uchun riskni kamaytirishni eng optimal yo‘llaridan biri bo‘lib, korxonada qo‘shimcha majburiyatlar paydo bo‘lishini oldini oladi. Albatta, buning uchun korxonalar ixtiyorida qoladigan foydaning bir qismini ko‘zda tutilmagan holatlar uchun zaxiralar shakllantirishni yanada keng yo‘lga qo‘yish lozim. Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aksariyat korxonalarda bunday tartibga unchalik e‘tibor qaratilmay kelmoqda.

Kalit so‘zlar: riskni aniqlash, korxonada strategiyasi, diversifikatsiya

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar xo‘jalik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni kamaytirishning jahon tajribasini keng o‘rgangan holda amaliyotda qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Avval ta’kidlaganimizdek, korxonalar faoliyatida asosiy e‘tibor berilishi lozim bo‘lgan masalalardan biri risklarni boshqarishdir. Bugungi kunda riskni boshqarish jarayoni quyidagi asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Korxonaning strategiyasi va maqsadni belgilash.
2. Riskni aniqlash.
3. Riskni baholash.
4. Riskni boshqarishni choralari, usullarini tanlash va joriy qilish.
5. Amalga oshirilgan ishlarni samaradorligini nazorat qilish.

Korxonalarda riskni boshqarish jarayonini quyidagi chizma yordamida ifodalash mumkin (1-chizma).



1-chizma: **Korxonalarda riskni boshqarish jarayoni.**



Korxonalarda riskni boshqarishni muhim jihatlaridan biri ularni kamaytirish yo‘llarini to‘g‘ri tanlash va amaliyotga samarali tatbiq etish hisoblanadi. Risklarni kamaytirishni xorijiy davlatlar va mamlakatimizda foydalaniladigan quyidagi usullari mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Korxonaning ichki moliyaviy imkoniyatlardan foydalangan holda risklarni kamaytirish. Bunda asosan, yuzaga kelgan riskni korxonaning ichki moliyaviy zaxiralari va moliyaviy resurslari hisobiga kamaytirishni ko‘zda tutadi. Bu usul korxonada uchun riskni kamaytirishni eng optimal yo‘llaridan biri bo‘lib, korxonada qo‘shimcha majburiyatlar paydo bo‘lishini oldini oladi. Albatta, buning uchun korxonalar ixtiyorida qoladigan foydaning bir qismini ko‘zda tutilmagan holatlar uchun zaxiralar shakllantirishni yanada keng yo‘lga qo‘yish lozim. Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aksariyat korxonalarda bunday tartibga unchalik e‘tibor qaratilmay kelmoqda. Ko‘pgina hollarda korxonalar o‘zlarining ixtiyorida qoladigan foydaning deyarli barcha qismini aylanma mablag‘larni ko‘paytirishga yo‘naltiradi. Shuning uchun korxonalar faoliyatida bunday holatlarni bartaraf etish maqsadida, ularning ixtiyorida qoladigan sof foydaning bir qismini qo‘shimcha moliyaviy zaxiralar yaratishga yo‘naltirishni qonunchilik bilan qat‘iy belgilab qo‘yish riskni kamaytirishda ijobiy samara beradi.

2. Korxonada riskni kamaytirishning yana bir usuli riskni sheriklarga yoki uchinchi tomonga o‘tkazish (transfert qilish) hisoblanadi. Bunda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan riskni uchinchi tomonga o‘tkazish quyidagi operatsiyalar orqali amalga oshirilishi mumkin:

- faktoring operatsiyalari orqali;
- kafillik shartnomalari tuzish orqali;
- yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan riskni hamkorlar o‘rtasida taqsimlash va boshqalar.

O‘z oqibatlari bo‘yicha eng xavfli risklar sug‘urtalash orqali pasaytiriladi. Risklarni sug‘urtalash risk darajasini kamaytirishning eng tarqalgan usullaridan biridir. Sug‘urta uchun albatta ikki tomon bo‘lishi zarur sug‘urtalovchi va sug‘urtalanuvchi. Sug‘urtalovchi sug‘urtalanuvchining to‘lovlari hisobiga pul fondini tashkil qiladi. Riskni birlashtirish – bu umumiy muammolarni hal qilishga hamkorlar sifatida boshqa korxonalar yoki yuridik shaxslarni jalb qilish orqali o‘z riskining darajasini pasaytirishdir. Buning uchun aksionerlik jamiyatlari, moliya - sanoat guruhlarini tashkil etilishi mumkin, korxonalar bir-birlarining aksiyalarini sotib olishi yoki almashishlari mumkin, turli assotsiatsiya va kontsernlarga a‘zo bo‘lishlari mumkin. Shunday qilib, risklarni birlashtirish deganda riskni iqtisodiyotning bir nechta subyektlari o‘rtasida bo‘lish orqali uni pasaytirish tushuniladi.

Diversifikatsiya risklarning alohida turlarini pasaytirish imkoniyatini beradi. Risklarning bunday turlariga kredit, depozit investitsion hamda valyuta risklari kiradi. Diversifikatsiya - bu investitsion riskni qo‘yish, ya‘ni investitsiya qilayotgan mablag‘larni bevosita bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmagan obyekt o‘rtasida taqsimlashdir. Diversifikatsiya tamoyili asosida faoliyat yurituvchi sifatida investitsion fondlarni misol qilib keltirish mumkin. Ular mijozlarga o‘z aksiyalarini sotishadi, olingan mablag‘larni turli qimmatli qog‘ozlarga qo‘yishadi va ular barqaror daromad keltiradi. Diversifikatsiya riskning bir qismini chetlab o‘tish imkoniyatini beradi. Bunda kapital turli xil faoliyat o‘rtasida taqsimlanadi. Lekin, deversifikatsiya investitsion riskni umuman yo‘qota olmaydi. Tadbirkorlik va investitsion faoliyatga tashqi faktorlar ham ta‘sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Галицкая С.В. Финансовый менеджмент. М.: Эксмо, 2009 г.



2. Ионова А.Ф. Селезнева Н.Н. «Финансовый менеджмент» Учебное пособие. Москва «Проспект» 2010 г 583 - стр.
3. Ковалев В.В., Вит.В.Ковалев Финанси организаций (предприятий). М.: Проспект, 2006 г.
4. Ковалев В.В. «Курс финансового менеджмента» Учебник 2-издание. Москва «Проспект» 2011 г 478 – стр.
5. Лукасевич И.Я. Финансовый менеджмент. М.: Эксмо, 2007 г
6. С.Е.Кован, Л.П.Моркова, А.Н. Ряховская Теория антикризисного управления предприятием: учебное пособие – М.: КНОРУС, 2009. – 29 с.
7. Фалко С.Г., Аксёнов А.П., Берзин И.Е., Иванова Н.Ю., Карманова В.А., Ключко В.Н., Пикунова С.А., Савченко Н.Н. «Экономика предприятия» Учебник. Москва «КНОРУС» 2011 г. 346 стр.
8. Шохин Е.И., Болшаков С.В., Булатова М.Г. «Финансовый менеджмент» Учебник. 3-издание. Москва «КНОРУС» 2011 г. 475 – ст.
9. Xusanov G'.N., Tursunxodjayev M.L., Vaqiyev A.R. Moliyaviy menejment. T.: Voris nashriyoti, 2006 y.
10. Поляк Г.Б. Финансовый менеджмент 2-е издание. М.: Юнити, 2008 г.